

*Nemis tilshunosligida “Aberglaube”-“irim-sirimlar” tushunchasi va uning  
kelib chiqishi*

*G'ayrat Hafizov Abduhakimovich*

*O'zbekistondagi Gyote Institutining nemis tili bo'yicha ta'lim sohasida  
hamkorlik bo'limi xodimi*

*Irim-sirimlar dunyo xalqlari madaniyatida qadim-qadimlardan mavjud bo'lib, ularning vujudga kelishi tabiat hodisalari, odamlarning yurish-turishi, ob-havo va boshqa bir qancha hodisayu tavsilotlar bilan bog'liqligini barchamiz yaxshi bilamiz. Shunga qaramay, irm-sirimlar ba'zi bir odamlarning g'ayritabiiy kuchlarning ta'siriga ishonishi natijasida kelib chiqqan degan taxminlar ham mavjudligi tilshunos olimlar tomonidan ilgari surilgan g'oyalardan biri hisoblanadi.<sup>42</sup> Irim-sirimlarni dunyodagi barcha madaniyatlar va zamonlardagi odamlarning hayoti va harakatlarida uchratish mumkin. Irim-sirimlarni madaniy umume'tirof etilgan jamoaviy fikrlash shakllari va marosimlarida ham uchratish mumkin. Masalan, baxt yoki baxtsizlik keltiruvchi ramzlarga ishonishda (baxtli tumorlar) yoki maqollarda, shaxsiy hayotda ham uchratish mumkinligini aslo unutmashimiz lozim.*

“Aberglaube” - “Irim-sirim” atamasi lotincha „superstitio“ atamasidan kelib chiqqan bo'lib, biron bir mintaqada “hukmron” bo'lgan din yoki dunyoqarashning madaniy e'tiqodlari va ta'limotlari tizimiga to'g'ri kelmaydigan e'tiqod shakllari va diniy urf-odatlariga nisbatdan tatbiq etiladi.<sup>43</sup> Shu nuqtai nazardan kelib chiqib gapiradigan bo'lsak, „irim-sirimlar“ haddan tashqari dindorlikni, ya'ni (superstitio – “super e'tiqod”) tasvirlash uchun ham ishlatilishi mumkin.

Tilshunoslikda ushbu atama asosan diniy idoralarda ishlatiladigan xalq e'tiqodi atamasi orqali ifodalangan. Tibbiyot sohasida ishlatiladigan „irim-sirimlarga“ tegishli atama va irim-sirimlarni xalq tabobatidan topish mumkin.

---

<sup>42</sup> Bernhard Dietrich Haage: Dichter, Drogen und Hexen im Hoch- und Spätmittelalter. In: Würzburger medizinhistorische Mitteilungen. Band 4, 1986, S. 63.

<sup>43</sup> Viktor Cathrein: Moralphilosophie. Eine wissenschaftliche Darlegung der sittlichen, einschließlich der rechtlichen Ordnung. 2 Bände, 5., neu durchgearbeitete Auflage. Herder, Freiburg im Breisgau 1911, S. 50–52.

16-asrdan beri qo'llanib kelingan "irim-sirim" so'zi asosan ruhoniylarga bid'at va bid'atlarga qarshi kurashishni ifodalovchi atama sifatida xizmat qilgan bo'lsada, 19-asrga kelib, xalq og'zaki ijodida asosan quyi qatlam vakillari orasida ilk bor ijobiy ma'noda, ya'ni „xalq e'tiqodi“ tushunchasi sifatida talqin qilina boshlangan. 20 asr boshlaridan boshlab esa, „irim-sirimlar“ asosan gumanitar fanlar doirasida ijtimoiy-madaniy hamda psixologik nuqtayi nazardan tadqiq qilina boshlangan.<sup>44</sup>

“Aberglaube” - “Irim-sirim” atamasi odatda irratsionallik va ilmiy asossizlik bilan ham tenglashtiriladi, chunki bu atama lotincha „superstitio“ atamasiga ma'no jihatdan yaqin bo'lib, “hodisalar tabiiyligiga noto'g'ri e'tiqod” deb talqin qilinishi ham mumkin.<sup>45</sup>

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, “Aberglaube” - “Irim-sirimlar” atamasi 12-asrlarda shakllangan bo'lib, (eski lotin yozuvi „abergloubé“) 16-asrdan boshlab esa keng tarqala boshlangan. Zamonaviy nemis etimologik lug'atlarida “aber-“ hosila komponenti dastlab „nach, wider, hinter“-“keyin, qarshi, orqada” degan ma'noni anglatgan, keyin esa so'zlarning ma'nosi o'zgarishi natijasida pastlatish ma'nosiga ega bo'lib, ikkinchi hosila komponenti ifodalagan narsaga qarama-qarshi ma'noni bildira boshlagan, masalan, „Aberwitz“ - „Irim-sirim“.<sup>46</sup> Nemis tilidagi „Aberglaube“ - „irim-sirim“ so'zi lotincha „super-stitio“ atamasining noto'g'ri talqinidan nemis tilshunosligiga kirib kelgan va nasroniylik ta'limotida e'tiqod va e'tiqod shakllaridan chetga chiqqan degan ma'nolarni ifodalaydi.

Evropa miqyosida butparastlik e'tiqodi tugallangan bo'lsa-da, mahalliy xalq e'tiqodlari ma'lum hududlarda saqlanib qolgan edi: afsunlar, tumorlar, yomon ko'zlar, muqaddas daraxtlar va muqaddas bog'lar nasroniylarni o'zlarining haqiqiy e'tiqodlaridan chalg'itmasligi lozim edi. Lekin shunga

---

<sup>44</sup> <https://www.wissen.de/lexikon/aberglaube/>26.11.2023

<sup>45</sup> Dieter Harmening: Superstitio. Überlieferungs- und theoriegeschichtliche Untersuchungen zur kirchlich-theologischen Aberglaubensliteratur des Mittelalters. Erich Schmidt, Berlin 1979, S. 43.

<sup>46</sup> Kluge: Etymologisches Wörterbuch der deutschen Sprache. 24. Auflage. Berlin [u. a.] 2002, S. 6; Wolfgang Pfeifer: Etymologisches Wörterbuch des Deutschen. 5. Auflage. München 2000, S. 3.

qaramay, „Aberglaube“ - „Irim-sirim“ atamasi yangi islohotlardan oldingi ta'sir kuchlarini kamaytirish uchun ham xizmat qilishi lozim edi. O'sha paytdagi insonlarning fikricha, cherkov tanqidchilari bid'atchilar va jodugarlar bilan bir xil mavqeyga ega bo'lishlari lozim edi. Rivojlanayotgan tabiiy fanlarning qoidalari qoralandi: iymon va ishonch o'rniga bilim yoki ko'rish istagi takabburlik va fanatizmga gumon qilingan va shuning uchun nasroniylarning axloqiga zid bo'lgan.

Antik davrlarda „superstitio“ atamasi ba'zan axloqiy jihatdan neytral ma'noda ham qo'llanilgan, „superstitiosus“ - folbin. Biroq, umuman olganda, diniy masalalar yuzasidan bu atama ma'nosi haddan tashqari tashvish va qo'rquv ma'nolarida tushunilgan. Antik davrlarda mashhur bo'lgan „Stoa“ falsafiy ta'limotiga ko'ra, haqiqiy din va taqvo diniy masalalarga juda kam e'tibor beradigan ateizm va diniy masalalarga haddan tashqari ko'p e'tibor qaratadigan xurofot (irim-sirim) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikdir. O'rta platonizmga yaqin bo'lgan yunon faylasufi Plutarx zarar va o'limdan qo'rqib xudolar va ularning e'tiqodiga qarshi bo'lgan hamma narsani xurofot deb qoralaydi.<sup>47</sup>

Gippo shahridan bo'lgan olim Avgustin nasroniy bo'lmagan dinlarni tavsiflash uchun "superstitio" atamasini yevropa tilshunosligiga kiritdi. U xurofotlar tarixi haqidagi o'rta asrlar ta'limotining nazariy asoslarini yaratib bergan olimdir. „De civitate Dei“, „De doctrina christiana“, „De divinatione daemonum“ va „De natura daemonum“ asarlarida Avgustin irim-sirimlarni keng miqyosda ilmiy jihatdan asoslab, yoritib berishga harakat qilgan. Gippo shahri ruhoniysi sifatida faoliyat yuritgan Avgustin nasroniylik ta'limotiga zid bo'lgan tumorlar bilan jiddiy kurashgan. Markus Terens Varroning nazariyasi

---

<sup>47</sup> Plutarch von Chaironeia: Über den Aberglauben. Nach Hans-Josef Klauck: Religion und Gesellschaft im frühen Christentum. Mohr Siebeck Verlag, Tübingen 2003, S. 15.

mohiyatiga tayangan Augustin mazkur olimning qarashlarini o'zining terminologiyasi va bilimlariga asos qilib olgan.<sup>48</sup>

Evropada ma'rifatparvarlik davrida tub o'zgarishlar ro'y berganligi sababli, e'tiqodlarning haqiqiylikini aniqlashga qaratilgan mulohazalar o'rniga olimlar tomonidan ilmiy tamoyillar doirasini aniqlashga urinishlar boshlanib ketdi. „Irim-sirimlar“ eng avvalo aqldan og'ish sifatida qaralgan va birinchi navbatda tarixiy va ijtimoiy-ma'rifiy muammo sifatida o'rganilgan. Bu kabi qarashlar ayniqsa, ma'rifatchilar tomonidan ilgari surilgan va ularning asosiy e'tibori diniy „irim-sirimlar“ga qaratilgan. Buning natijasida ma'rifatchilar tomonidan „aqli din“ g'oyasi ilgari surilgan. Masalan, faylasuv olim Immanuel Kantning fikricha: “Xurofot (irim-sirim) - bu axloq va tabiat qonunlariga nisbatan tushuntirib berilishi mumkin bo'lgan narsadan ko'ra, g'ayritabiiy deb hisoblangan narsalarga ko'proq ishonish tendentsiyasidir.”<sup>49</sup> Ijtimoiy soha psixologi Judd Marmor ta'rifiga ko'ra, „Irim-sirimlar“ deganda ilmiy asoslanmagan va jamiyatda mavjud bilim darajaga mos kelmaydigan e'tiqod va amaliyotlar tushuniladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, “Aberglaube” – “Irim-sirim” atamasi nemis tilshunosligiga 12 asrdan boshlab kirib kelgan va 16 asrdan boshlab esa keng miqyosda qo'llanila boshlangan. 20 asrning o'rtalariga kelib esa tilshunos olimlar tomonidan irim-sirimlar har tomonlama tadqiq qilina boshlangan. Hozirgi kunda esa bir necha xalq va ularning madaniyatida “irim-sirimlar” ahamiyati va kelib chiqishi har tomonlama tadqiq qilinishi muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Zero ushbu termin va u qamrab olgan ma'no va mazmun keng miqyosda tadqiq qilingan bo'lsada, hali hanuz o'zining dolzarbligini yuqotmagan.

Umuman olganda ko'pchilik mutafakkirlarning fikriga tayanadigan bo'lsak, irim-sirimlarning aksariyati xurofot sanalsada, ularning zamirida, xalq

---

<sup>48</sup> Roland Götz: Der Dämonenpakt bei Augustinus. In: Georg Schwaiger (Hrsg.): Teufelsglaube und Hexenprozesse. München 1999, S. 57–84.

<sup>49</sup> Immanuel Kant: Werkausgabe. Hrsg. von Wilhelm Weischedel, Bd. XI, 4. Auflage. Frankfurt 1982, S. 335.

orasida talqin qilinishida asosan inson tarbiyasi va uning axloqiga xizmat qilish tushunchasi yashiringan. Shuning uchun bu soha yanada chuqurroq tadqiq qilinishi lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bernhard Dietrich Haage: Dichter, Drogen und Hexen im Hoch- und Spätmittelalter. In: Würzburger medizinhistorische Mitteilungen. Band 4, 1986
2. Dieter Harmening: Superstitio. Überlieferungs- und theoriegeschichtliche Untersuchungen zur kirchlich-theologischen Aberglaubensliteratur des Mittelalters. Erich Schmidt, Berlin 1979
3. Ismoilov Farxod, Yusupov Ibrohim. Irim-sirimlar. Farg'ona. 2022
4. Immanuel Kant: Werkausgabe. Hrsg. von Wilhelm Weischedel, Bd. XI, 4. Auflage. Frankfurt 1982
5. Kluge: Etymologisches Wörterbuch der deutschen Sprache. 24. Auflage. Berlin [u. a.] 2002, S. 6; Wolfgang Pfeifer: Etymologisches Wörterbuch des Deutschen. 5. Auflage. München 2000
6. Plutarch von Chaironeia: Über den Aberglauben. Nach Hans-Josef Klauck: Religion und Gesellschaft im frühen Christentum. Mohr Siebeck Verlag, Tübingen 2003
7. Roland Götz: Der Dämonenpakt bei Augustinus. In: Georg Schwaiger (Hrsg.): Teufelsglaube und Hexenprozesse. München 1999
8. Viktor Cathrein: Moralphilosophie. Eine wissenschaftliche Darlegung der sittlichen, einschließlich der rechtlichen Ordnung. 2 Bände, 5., neu durchgearbeitete Auflage. Herder, Freiburg im Breisgau 1911
9. <https://www.wissen.de/lexikon/aberglaube//26.11.2023>